

---

## OLTIARIQLIK SPORTCHILAR 5 OYDA 44 TA MEDALNI QO'LGA KIRITDILAR

Kecha, 23 may kuni Prezidentimiz raisligida sportni ommalashtirish va iqtidorli sportchilarni tayyorlash chora-tadbirlari bo'yicha videoselektor yig'ilishi o'tkazilgan edi.



Mazkur yig'ilishda mamlakatimizda sport infratuzilmasi izchil rivojlantirilib, yoshlarning qiziqishlari qo'llab-quvvatlanayotgani alohida ta'kidlandi.

Prezidentimizning ko'rsatmasiga asosan endi har bir mahallada sport musobaqalari muntazam ravishda o'tkaziladi. Yaxshi natijalarni qo'lga kiritgan yosh sportchilar munosib rag'batlantiriladi.

Bugun tuman hokimi Sh.Turdaliyev tuman Bolalar va o'smirlar sport maktabida bo'lib, u yerda sportchi yoshlar uchun yaratilgan sharoitlar bilan tanishdi.

BO'SM direktori R.Uzoqovning ma'lum qilishicha, hozirda Bolalar va o'smirlar sport maktabida 63 nafar murabbiylarning qo'l ostida 25 ta sport turi bo'yicha 1900 nafar o'quvchilar sport bilan muntazam shug'illanmoqda.



Sport maktabi tarbiyalanuvchilari 2022 yilning 5 oyi davomida O'zbekiston chempionati va O'zbekiston kubogida 39 ta, Xalqaro turnirlarda 5 ta medallarni qo'lga kiritishgan.

Tuman hokimi tumanda sportni yana ommalashtirish va rivojlantirish, buning uchun tuman hokimligi tomonidan yetarlicha shart-sharoitlar yaratilishini ta'kidladi.

**[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)**

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#)

2022-05-24 16:10:53